

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ABU ALI IBN SINONING VAQT HAQIDAGI QARASHLARINING TAHLILI

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

«ALFRAGANUS UNIVERSITY» nodavlat oliy ta'lim tashkiloti, professor.

e-mail: gulnoz68@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-7046-1732>

Аннотатсия.

Mazkur maqolada Abu Ali ibn Sinoning vaqt haqidagi falsafiy qarashlari tizimli ravishda tahlil qilinib, uning mazkur masalaga oid ontologik va gnoseologik yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqotda mutafakkirning vaqtni borliqning muhim shakllaridan biri, harakat va o'zgarishning obyektiv o'lchovi sifatida talqin qilishi hamda bu masalaning makon, harakat va moddiy olam bilan o'zaro aloqadorligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, Ibn Sinoning vaqt haqidagi qarashlarining shakllanishida Arastu falsafasining ta'siri, ular o'rtasidagi vorisiylik va o'ziga xos farqli jihatlar qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada Ibn Sinoning vaqt haqidagi ta'limoti islom falsafasi rivojida o'rni, uning keyingi Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlariga ko'rsatgan ta'siri ham baholangan. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil va gerменевтик yondashuv usullaridan foydalanilgan. Maqola natijalari Ibn Sino merosida vaqt kategoriyasining falsafiy mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda vaqt muammosini o'rganish uchun nazariy asoslarni boyitishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Abu Ali ibn Sino, vaqt, zamon, borliq, harakat, makon, ontologiya, gnoseologiya, Arastu, islom falsafasi, falsafiy meros.

АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ НА ВРЕМЯ

Рузматова Гульноз Мирахраровна

Негосударственная образовательная организация высшего образования

«ALFRAGANUS UNIVERSITY», профессор.

Аннотация.

В данной статье представлен системный анализ философских взглядов Абу Али ибн Сины (Авиценны) на категорию времени, раскрываются онтологические и гносеологические аспекты его учения. Исследование посвящено интерпретации времени как одной из фундаментальных форм бытия, объективной меры движения и изменения, а также выявлению его взаимосвязи с пространством, движением и материальным миром в философской системе мыслителя. Особое внимание уделено влиянию философии Аристотеля на формирование концепции времени у Ибн Сины, а также анализу преемственности и оригинальных особенностей его подхода. В статье оценивается значение учения Ибн Сины о времени для развития исламской философии и его влияние на последующую философскую мысль Востока и Запада. Методологическую основу исследования составляют исторический, сравнительно-философский, логический и герменевтический методы, обеспечивающие комплексный анализ проблемы времени в трудах мыслителя. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию философской сущности категории времени в наследии Ибн Сины и расширяют теоретические основы современных исследований природы времени.

Ключевые слова: Абу Али ибн Сина (Авиценна), время, бытие, движение, пространство, онтология, гносеология, Аристотель, исламская философия, философское наследие.

AN ANALYSIS OF ABU ALI IBN SINA'S VIEWS ON TIME

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

ALFRAGANUS UNIVERSITY (Non-State Higher Education Institution), Professor.

Abstract.

This article provides a systematic analysis of Abu Ali Ibn Sina's (Avicenna's) philosophical views on the concept of time, focusing on its ontological and epistemological dimensions. The study examines Ibn Sina's interpretation of time as one of the fundamental forms of existence and as an objective measure of motion and change. Particular attention is paid to the relationship between time, space, motion, and the material world within his philosophical system. The article also explores the influence of Aristotle's philosophy on Ibn Sina's understanding of time, highlighting both the continuity and the distinctive features of

his interpretation through a comparative analysis. Furthermore, the study evaluates the significance of Ibn Sina's theory of time in the development of Islamic philosophy and its intellectual impact on later Eastern and Western philosophical traditions. The research is based on historical, comparative, logical, and hermeneutic methods, enabling a comprehensive examination of the concept of time in Ibn Sina's works. The findings contribute to a deeper understanding of the philosophical essence of time in Ibn Sina's legacy and enrich the theoretical foundations for contemporary philosophical studies on the nature of time.

Keywords: Abu Ali Ibn Sina (Avicenna), time, existence, motion, space, ontology, epistemology, Aristotle, Islamic philosophy, philosophical heritage.

Kirish. Abu Ali ibn Sinoning vaqt haqidagi falsafiy qarashlari Sharq va G'arb falsafasida keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni tadqiq etishda, avvalo, Arastuning vaqt haqidagi ta'limoti nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Arastu «Fizika» va «Metafizika» asarlarida vaqtni harakatning «avval» va «keyin»ga ko'ra miqdori sifatida ta'riflab, uning harakat bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan. Mazkur yondashuv keyinchalik Ibn Sino falsafasida yanada takomillashtirilib, vaqtning ontologik maqomi va uning borliq tizimidagi o'rni chuqurroq tahlil qilingan.

Ibn Sino merosini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy ishlar orasida uning «Ash-Shifo», «An-Najot» va «Al-Ishorot va-t-tanbihot» asarlari asosiy manba sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarlarda vaqt harakatning miqdoriy o'lchovi sifatida emas, balki moddiy borliqdagi o'zgarish va rivojlanishning zaruriy shakli sifatida ham izohlangan. Mutafakkir vaqtni makon, harakat va moddiy olam bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilib, uning obyektiv xususiyatlarini asoslashga harakat qiladi.

Zamonaviy avitsennashunoslikda D. Komilov, L. Saldadze hamda boshqa tadqiqotchilar Ibn Sinoning ontologik va kosmologik qarashlarini tahlil qilish orqali uning vaqt haqidagi ta'limotini keng yoritganlar. Ayniqsa, Ibn Sino ontologiyasida vaqt, harakat, makon va materiyani o'zaro bog'liqligi, emanatsiya nazariyasi hamda borliqning abadiyligi haqidagi g'oyalar alohida ilmiy tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar Ibn Sinoning vaqt haqidagi qarashlari nafaqat Arastu falsafasining davomi, balki mustaqil va original falsafiy konsepsiya ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida Ibn Sinoning vaqt konsepsiyasi umumiy ontologik qarashlari doirasida yoritilgan bo'lib, vaqt kategoriyasining mustaqil falsafiy tahlili, uning zamonaviy falsafadagi talqinlari hamda harakat, makon va abadiylik tushunchalari bilan bog'liq jihatlar yetarlicha ochib berilmagan. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola Ibn Sinoning vaqt haqidagi qarashlarini maxsus tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqishi, ularning ontologik va gnoseologik mazmunini qiyosiy tahlil qilishi hamda zamonaviy falsafiy yondashuvlar bilan uyg'unlikda baholashga qaratilganligi bilan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Vaqt muammosi insoniyat tafakkuri tarixidagi eng qadimiy va murakkab falsafiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Borliq, harakat, makon, o'zgarish va abadiylik kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan vaqt kategoriyasi turli sivilizatsiyalar va falsafiy maktablarda o'ziga xos tarzda talqin qilingan. Antik davrda bu masalaga Arastu tomonidan nazariy asos solingan bo'lsa, o'rta asrlar Sharq falsafasida Abu Ali ibn Sino mazkur ta'limotni yanada rivojlantirib, vaqtning ontologik va metafizik mohiyatiga doir original g'oyalarni ilgari surdi. U vaqtni nafaqat harakatning miqdoriy o'lchovi, balki moddiy borliqdagi o'zgarishlarning obyektiv shakli sifatida ham asoslashga harakat qildi. Ibn Sinoning vaqt haqidagi qarashlari uning borliq, harakat, makon, sababiyat va emanatsiya haqidagi umumiy falsafiy tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu masala nafaqat tabiiy falsafa, balki metafizika va kosmologiyani ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mutafakkir vaqtning harakat bilan bog'liqligi, uning uzluksizligi, abadiyligi hamda ilohiy mavjudlikning vaqtdan mustaqilligi haqidagi g'oyalari bilan islom falsafasida yangi bosqichni boshlab bergan. Uning mazkur qarashlari keyinchalik musulmon Sharqi mutafakkirlari hamda G'arb sxolastik falsafasi vakillari tomonidan ham keng muhokama qilingan. Bugungi kunda vaqt muammosi nafaqat falsafa, balki fizika, kosmologiya, kognitiv fanlar va madaniyatshunoslik kabi sohalarida ham dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan Ibn Sinoning vaqt haqidagi ta'limotini qayta tahlil qilish, uning nazariy asoslarini zamonaviy falsafiy yondashuvlar bilan qiyosiy o'rganish hamda mazkur g'oyalarning bugungi ilmiy tafakkurdagi ahamiyatini baholash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi Abu Ali ibn Sinoning vaqt haqidagi falsafiy qarashlarini ontologik va gnoseologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularning Arastu falsafasi bilan vorislik munosabatlarini ochib berish hamda mutafakkirning vaqt konsepsiyasining islom falsafasi va jahon falsafiy tafakkuri rivojida o'rnini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tarixiylik, qiyosiy-falsafiy, mantiqiy tahlil va germeneytik yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Abu Ali ibn Sinoning vaqt haqidagi falsafiy qarashlarini har tomonlama yoritish maqsadida falsafiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini Ibn Sinoning «Ash-Shifo», «An-Najot» va «Al-Ishorot va-t-tanbihot» asarlarida bayon etilgan vaqt, harakat, makon, borliq va abadiylik haqidagi qarashlari, shuningdek, Arastuning «Fizika» va «Metafizika» asarlaridagi vaqt konsepsiyasi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, tarixiy-falsafiy tahlil usulidan foydalanilib, vaqt kategoriyasining antik davr falsafasidan islom falsafasigacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari hamda Ibn Sino ta'limotining shakllanish omillari o'rganildi. Ushbu yondashuv mutafakkir qarashlarining tarixiy ildizlari va ularning falsafiy evolyutsiyasini ochib berish imkonini berdi. Shu bilan birga, qiyosiy-falsafiy tahlil usuli yordamida Arastu va Ibn Sinoning vaqt haqidagi qarashlari o'zaro taqqoslandi. Bunda vaqtning harakat bilan aloqasi, uning ontologik maqomi, abadiylik, uzluksizlik va «avval–keyin» munosabatlari bo'yicha umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Qiyosiy tahlil Ibn Sinoning Arastu ta'limotini qabul qilish bilan birga uni yangi ontologik mazmun bilan boyitganini ko'rsatishga xizmat

qildi. Tadqiqotda, shuningdek, mantiqiy tahlil usuli orqali vaqt, harakat, makon, imkoniyat, voqelik va abadiylik tushunchalari o'rtasidagi ichki mantiqiy bog'lanishlar tahlil etildi. Ibn Sinoning vaqtni harakatning imkoniy o'lchovi sifatida talqin qilishi, vaqtning moddiy borliq bilan munosabati hamda ilohiy mavjudlikning vaqtdan mustaqilligi haqidagi xulosalari izchil mantiqiy tahlil asosida baholandi. Bundan tashqari, germevistik yondashuv asosida Ibn Sino asarlaridagi vaqtga oid matnlar falsafiy mazmuni nuqtayi nazaridan talqin qilinib, ularning zamonaviy falsafa nuqtayi nazaridan ilmiy ahamiyati baholandi. Manbalarni tahlil qilish jarayonida matnlarning mazmuniy uyg'unligi, tushunchalarning konseptual bog'liqligi hamda ularning keyingi islom va jahon falsafasi taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ham hisobga olindi.

Natija va tahlillar. Ibn Sino (980–1037) vaqt masalasini asosan Arastu ta'limotiga tayanib ishlab chiqqan, lekin o'ziga xos o'zgartirishlar va metafizik chuqurlashtirishlar kiritgan. Uning fikricha, vaqt fizika (tabiiy falsafa) va metafizikaning muhim qismidir. Ibn Sino vaqtning tabiati haqidagi asosiy ta'rifi Arastuga yaqin turadi. «Vaqt — harakatning miqdori (son), u oldingi va keyingiga ajratiladi» [1, 99].

Vaqt harakatsiz mavjud emas. U harakatning o'lchovi sifatida paydo bo'ladi. Vaqt muttasil, uzluksiz — u nuqtalar yig'indisi emas, balki bir butun davomiylikdir. Hozirgi zamon — vaqtning chegarasi. U o'tmish va kelajakni ajratib turadi, lekin o'zi vaqtning bir qismi emas. Ibn Sino hozirning oqib o'tishi orqali vaqtning paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Arastu vaqtni faqat harakat bilan bog'laydi. Ibn Sino esa buni chuqurroq tahlil qiladi: vaqt harakatning imkoniy tomonining aktuallasuvi bilan bog'liq. U vaqtning nisbiyligi va relyativligi g'oyasiga yaqinlashadi (garchi zamonaviy nisbiylik nazariyasidan ancha oldin bo'lsa ham). Vaqt materiya va harakat dunyosiga xos. Lekin Alloh vaqtdan holi. U abadiy holat, mutlaq vaqt va zamon (harakatga bog'liq vaqt) kabi darajalarni farqlaydi.

Arastu vaqtning mavjudligi haqidagi shubhalarni [1, 169] to'liq hal qilmagan. Ibn Sino buni to'ldiradi va empirik tajribaga asoslangan faktlardan kelib chiqib, vaqtning mavjudligini isbotlaydi: bir xil tezlikdagi ikki harakatlanuvchi jism bir vaqtda boshlanib, tugasa — bir xil masofani bosib o'tadi. Turli tezlikdagi jismlar bir vaqtda tugasa — turli masofani bosib o'tadi. Bulardan kelib chiqadiki, harakatlanuvchi jismda imkoniyat — ma'lum masofani muayyan tezlikda bosib o'tish qobiliyati mavjud. Bu imkoniyat na masofa, na tezlik, na jismning o'lchamiga teng. U vaqtdir. Shunday qilib, Ibn Sino vaqtni harakat bilan bog'liq kinematik harakat o'lchami imkoniyat sifatida ko'rsatadi.

Ibn Sino Arastu ta'rifini qabul qiladi. Vaqt — harakatning avval va keyin qismlarga ajratilgandagi sonidir. Avval-keyinlikni u fazodagi harakatning yo'nalishi bilan bog'laydi (masalan, masofaning boshi va oxiri). Bu Galenning «doiraviy» (*circular*) tanqidini rad etadi. Ibn Sino yanada aniqroq qilib: vaqt aylana harakatning avval-keyinligiga xos miqdordir, chunki faqat aylana harakat cheklanmasdan o'tmish va kelajakka cho'zilishi mumkin.

Vaqt harakatning zaruriy atributidir. Harakat bo'lmasa, vaqt ham yo'q. Lekin harakatning o'zi ham vaqtga bog'liq. Ibn Sino dunyoning abadiyligini isbotlaydi. Agar vaqt va harakat yaratilgan bo'lsa (masalan, 10 000 yil oldin), undan oldin ham imkoniyat (vaqt) bo'lishi kerak edi — bu qarama-qarshilik. Shuning uchun vaqt va harakat o'tmishda ham, kelajakda ham abadiydir. Bu Arastu ta'sirida, lekin Ibn Sino uni o'z imkoniyat nazariyasi bilan kuchaytiradi. Ibn Sino vaqtni moddiy dunyoga xos qiladi. Alloh vaqtdan tashqari — unda avval-keyin yo'q. Bu uning metafizikasi bilan bog'liq.

Ibn Sinoning kosmologiyasida vaqt emanatsiya nazariyasiga tayanadi. Olamning yaratilishi vaqtda emas, balki mantiqiy zaruriyat orqali sodir bo'ladi. Dunyo abadiy, lekin undagi o'zgarishlar vaqtga bog'liq. Osmon jismlarining harakati (aylana harakat) — vaqtning eng mukammal o'lchovi hisoblanadi. Ibn Sino Aristotelning «birinchi harakatlantiruvchi kuch» konsepsiyasini rivojlantirib, ilohiy nazariyalarning haqiqatga yaqinligini (Allohning mavjudligini) isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha, borliqning birinchi sababi har qanday narsadan mustaqil bo'lgan sof ma'naviyatdir.

Ibn Sinoning ontologik qarashlari asos e'tibori bilan neoplatonizm ta'sirida shakllanganligiga guvoh bo'lamiz. Ma'lumki, borliq haqidagi ta'limotning tayanch kategoriyalari materiya, harakat, makon, vaqt va substansiyalardir. Ibn Sinoning ontologik qarashlari asosida aynan ana shu tushunchalar yotadi. Ma'lumki, har qanday jism yoki moddaning harakati muayyan makon va zamonda (vaqtda) sodir bo'ladi. Bilamizki, materiya va uning substansional asosi falsafaning birlamchi bo'g'ini hisoblangan ontologiya ta'limotining asosiy muammosidir.

Ma'lumki, har qanday jismning harakati makonda sodir bo'ladi. Ibn Sinoning javobida bu masala bo'shliq tushunchasi orqali tahlil etiladi va u o'z javobida: «Na quyiga, na yuqoriga borish uchun joyning yo'qligi menga taslim qilinadi», — deydi [5, 62]. Ularning harakati yuqori va pastki tomon bo'lishi mumkin. Og'ir narsa tabiat bo'yicha quyiga harakat qiladi, uning tabiiy o'rni pastlikdir, degan xulosaga kelamiz.

Ibn Sinoning fikricha, borliq yoki mavjudlikda narsa (jism) va hodisalarning tabiiy tizimlaridan iborat bo'lib, u «o'zining tabiiy o'rnidadir». Birinchi yondashuvda odamlar va barcha mavjud narsalar doimiy harakatda bo'lib, bu harakatga kuch lozimdirki, bu esa yo jism bo'ladi, yo jism bo'lmaydi. Harakat qildiruvchi hamma narsalar ham jism emasdir. Ibn Sino bu yerda o'zining emanatsiya nazariyasi asosida faol aql va birlamchi sabab (turtki), ya'ni «ilmiy iloh»ga o'rin qoldiradi. Harakatga ikkinchi yondashuv, Ibn Sino fikricha, tabiatda majburiy harakat bo'lishi mumkin emas, narsalarning harakati uning tabiiy holatidir.

Emanatsiya nazariyasiga ko'ra, olamning yaratuvchisi bo'lib, nomoddiy substansiyalardan moddiy substansiyalarning evolyusiyasi, materiyaning og'irlashuvi yoki uning massasining oshib borishiga olib keladi. Bu nazariy xulosa olamning paydo bo'lishi va rivojlanishiga evolyutsion nazariyani qo'llash edi. Obyektiv olam yaratilishi va keyinchalik Yevropa fanida keng tarqalgan. Beruniy va Ibn Sino fikricha, olam yaratuvchisining mohiyati shundaki, mavjud olam o'zining «arxitektori»ga bog'liq bo'lmagan qonunlar asosida doimiy rivojlanish va takomil jarayonidadir. Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, olamning yaratuvchisi haqidagi fikr, olamning abadiyligi haqidagi ta'limotni Ibn Sino mavjud ruhoniylar va din peshvolari uchun o'ziga xos mantiqiy usul deb hisoblaydi [6, 171].

Koinot (astronomiya) ilmidagi farazlar (bevosita allomaning ontologik ta'limotlari) Ibn Sinoning ko'plab asarlarida mavjud. «Harakat falakka yetisholmagach, unga tegolmaydi, tegmagach unga ta'sir etolmaydi. Demak, basit (sodda) va

murakkablarning birortasi falak bo'laklariga ta'sir etolmaydi. Falak bo'laklarida o'zlaridan boshqa jismlarning kulliyatlardan sodda ham murakkab juz'ylarining ta'sir qilishlari mumkin bo'lmagach, bo'laklarning ta'sirlanishlari va majburan o'zlaricha harakat qilishlari ham mumkin emas. Muqaddam (shart) ijobi (bo'lishligi) bilan istisno, ya'ni falak juz'ylariga o'zlaridan boshqalarning ta'sir qilishi mumkin emas degan so'zimiz haqdir. Bundan natija, ya'ni uning "ta'sir qabul qilishi va majburiy harakat qilishi mumkin bo'lmaydi" degan so'zimiz to'g'ri va haqdir. Falak na butun holda, na bo'laklar holda bilquvva (quvvat)da yengil ham emas, og'ir ham emas. Amalda ham shunday emasligini isbot qilgan edik. Demak, aytmoqchi bo'lganlarimiz shudir» [7, 39].

Ibn Sino [2, 10–13] vaqtning mohiyatini ilmiy va falsafiy jihatdan chuqur tahlil qiladi. U Arastu ta'rifini asos qilib olgan holda, o'ziga xos original yondashuvlarni qo'shadi. Ibn Sino Arastuga tayanib, vaqtning mohiyatini jins va farq orqali beradi: jins — soniya yoki miqdor, harakatga xos o'lchovli tomon. Vaqt harakatning miqdoriy jihatidir. Avval va keyin bo'yicha ajralish harakatning fazodagi yo'nalishi (masalan, masofaning boshi va oxiri) bilan belgilanadi. Avval-keyinlik umumiy tushuncha. Uning turlari bor (mavqe, martaba, vaqt jihatidan). Ibn Sino vaqtdagi avval-keyinlikni harakatning yo'nalishi bilan bog'lab, doiraviy tanqidni (vaqtning o'zini ta'rifda ishlatish) rad etadi. Vaqt harakatning miqdori sifatida harakatning o'zi emas, balki uning atributi hisoblanadi.

Vaqtning imkoniyat sifatidagi mohiyati Ibn Sinoning eng original hissasidir. Harakatlanuvchi jismda ma'lum masofani muayyan tezlikda bosib o'tish imkoniyati mavjud. Bu imkoniyat na masofa, na tezlik, na jismning o'lchamiga teng, u vaqtdir. Vaqt — harakatning kinematik potentsialidir. Bu ta'rif vaqtni statik (harakatdan mustaqil) emas, balki dinamik va harakatga bog'liq qiladi. Vaqt harakatni o'lchaydi va uning tartibini belgilaydi.

Ibn Sino «Shifo», «Najot», «Ishorat» asarlarida vaqtni aylana harakatning avval-keyinligiga xos miqdor deb aniqlaydi. Sababi, faqat aylana harakat (masalan, osmon jismlarining harakati) chegarasiz davom etishi mumkin. Bu vaqtning o'tmish va kelajakka abadiy cho'zilishini ta'minlaydi.

Abadiylik isboti — agar vaqt va harakat cheklangan bo'lsa (yaratilish paytida), undan oldin ham imkoniyat (vaqt) bo'lishi kerak edi. Bu qarama-qarshilikka olib keladi — vaqt va harakat abadiydir. Vaqt moddiy dunyoga xos. U potentsialdan aktualga o'tishning o'lchami. Alloh vaqtdan tashqari — unda o'zgarish, avval-keyin yo'q.

Vaqt biz harakatni kuzatish orqali bilamiz. U hozirgi zamon orqali seziladi, lekin hozir vaqtning chegarasi, o'zi vaqt emas, uzluksizlikdir. Vaqt atomlardan iborat emas (atomizmni rad etadi) — u uzluksiz oqimdir. Harakat vaqtning sababi va o'lchami, vaqt esa harakatning ifodasidir. Bu tabiat falsafasining markazi. Dunyoning abadiyligini qo'llab-quvvatlaydi, lekin yaratilishni rad etmaydi. Bu nazariya o'rta asrlar islom va G'arb falsafasiga, Foma Akvinskiy va boshqalarga katta ta'sir qilgan. Ibn Sino uchun vaqtning mohiyati harakatning imkoniyat sifatidagi miqdori, avval-keyinlikka ega aylana harakatning o'lchami. U moddiy o'zgarishning zaruriy shakli bo'lib, abadiy oqimni ifodalaydi, lekin ilohiy zamondan tashqari turadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abu Ali ibn Sino vaqt kategoriyasini nafaqat harakatning miqdoriy o'lchovi, balki borliqning obyektiv va zaruriy shakli sifatida ham asoslab bergan. U Arastuning vaqt haqidagi ta'limotini qabul qilgan holda, uni ontologik va metafizik jihatdan yanada boyitib, vaqtning harakat, makon, moddiy borliq va imkoniyat-voqelik munosabatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ilmiy-falsafiy jihatdan asoslaydi. Tadqiqot davomida Ibn Sinoning vaqt haqidagi konsepsiyasida bir qator o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, mutafakkir vaqtni harakatning kvanti emas, balki uning uzluksiz va obyektiv o'lchovi sifatida talqin etadi, «hozir» tushunchasini vaqtning chegarasi sifatida baholaydi hamda vaqtning moddiy olamga xosligi va ilohiy mavjudlikning vaqtdan mustaqilligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Bu yondashuvlar Ibn Sinoning falsafiy qarashlari Arastu ta'limotining oddiy davomi emas, balki mustaqil va original falsafiy tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Ibn Sino vaqtni harakatning imkoniy tomonining voqelikka aylanish jarayoni bilan bog'lab talqin etadi. Bu esa uning vaqt haqidagi ta'limotini nafaqat o'rta asrlar islom falsafasi, balki jahon ontologiyasi va metafizikasi taraqqiyotida muhim nazariy bosqichlardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, mutafakkirning vaqt, harakat va abadiylik haqidagi qarashlari keyingi Sharq va G'arb falsafasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari Ibn Sino merosida vaqt kategoriyasining falsafiy mazmunini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda uning ontologik qarashlarini zamonaviy falsafiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan qayta baholash uchun nazariy asos yaratadi. Kelgusida Ibn Sinoning vaqt haqidagi ta'limotini zamonaviy vaqt falsafasi, fenomenologiya, analitik metafizika va tabiiy fanlarda shakllangan vaqt konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilish ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аристотель. *Метафизика* // Сочинения: в 4 т. – Т. 1. – Москва: Мысль, 1975. – 550 с.
2. Ibn Sino. *Ash-Shifo. Fizika*. 2.10–13-boblar. – Qohira: al-Hay'at al-Misriyya al-'Ammal-Kitab, turli nashrlar.
3. Ibn Sino. *An-Najot*. – Bayrut: Dār al-Āfāq al-Jadīda, 1985. – 680 b.
4. Ibn Sino. *Al-Ishorat va-t-tanbihot*. – Bayrut: Dār al-Kutub al-Ilmiyya, 1999. – 428 b.
5. Komilov D. *Avitsennovedeniye v Tadzhikistane v XX i nachale XXI vv.* / pod red. S. Axmedova. – Dushanbe, 2020. – 320 s.
6. Saldadze L. *Ibn Sina. Avitsenna. Stranitsy velikoy jizni*. – Toshkent: Fan, 1985. – 240 s.
7. Vaxabova B. A. *Rukopisi proizvedeniy Ibn Siny v sobranii Instituta vostokovedeniya AN UzSSR*. – Toshkent: Fan, 1982. – 96 s.
8. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. Qo'lyozma № 2213/111.
9. Fakhry M. *A History of Islamic Philosophy*. 3rd ed. – New York: Columbia University Press, 2004. – 448 p.
10. Gutas D. *Avicenna and the Aristotelian Tradition: Introduction to Reading Avicenna's Philosophical Works*. 2nd ed. – Leiden–Boston: Brill, 2014. – 645 p.
11. McGinnis J. *Avicenna*. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 312 p.

12. Nasr S. H. *An Introduction to Islamic Cosmological Doctrines*. – Albany: State University of New York Press, 1993. – 356 p.
13. Adamson P. *Philosophy in the Islamic World*. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 272 p.
14. Morewedge P. (Ed.). *Islamic Philosophical Theology*. – Albany: State University of New York Press, 1979. – 420 p.
15. Leaman O. *An Introduction to Classical Islamic Philosophy*. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 240 p.
16. Ruzmatova G. Anthoni Sheftsberining go'zallik va adolat tushunchalari o'rtasidagi uyg'unlik // *Tamaddun nuri*. – 2025. – № 7 (70). – B. 119–122.
17. Ruzmatova G. Human Nature and Social Activity: Erich Fromm's Humanistic Worldview // *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*. – 2025. – Vol. 5, Issue 7. – P. 54–56. – URL: <https://eipublication.com/index.php/jsshrf/article/view/3239>
18. Ruzmatova G. Alisher Navoiy va Anthoni Sheftsberining go'zallik va adolat tushunchalarining komparativistik tahlili // *Makon va zamon*. – 2025. – № 4 (6). – B. 15–20.
19. Ruzmatova G. Two Worlds of Social Activity: The Perspectives of Ibn Sina and Erich Fromm // *American Journal of Social Sciences and Humanity Research*. – 2025. – Vol. 5, No. 9. – P. 47–50. – DOI: 10.37547/ajsshr/Volume05Issue09-12. – URL: <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume05Issue09-12>
20. Ruzmatova G. Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy tahlili // *FarDU. Ilmiy xabarlar*. – 2025. – № 6. – B. 32–35. – URL: <https://journal.fdu.uz>
21. Ruzmatova G. Enhancing Personalized Learning in Smart Classrooms through Context-Aware Mobile Network Integration // *Journal of Wireless Mobile Networks, Ubiquitous Computing, and Dependable Applications*. – 2025. – Vol. 16, No. 4. – P. 53–71. – DOI: 10.58346/JOWUA.2025.I4.004.